

**BOBURNING HARBIY SARKARDALIK FAOLIYATI, TAKTIKA VA JANG  
SAN'ATINING XALQARO DOIRADA O'RGANILISHI**

**Qoraxo'jayev Saydullo<sup>1</sup>**

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3 kurs talabasi*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 09.02.2025*

*Revised: 10.02.2025*

*Accepted: 11.02.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Zahiriddin  
Muhammad Bobur,  
Boburiylar sulolasi,  
qo'shin tarkibi, qo'shin  
tuzilishi, jang san'ati,  
bandoqchilar,  
shamshirbozlar, jangchi  
fillar, kavaleriya,  
artileriya, piyoda  
askarlar, "Boburnoma".*

*Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik faoliyati jangda harakatlanish talktikasi, hamda qo'shininig tuzilishi haqida so'z boradi. Shuningdek Boburning olib borgan janglari hamda ko'rsatgan qahramonlikllari to'g'risida tarixchi olimlarning bildirgan fikrlari to'g'risida chuqur mulohazalar yuritiladi.*

**KIRISH.** Zahiriddin Muhammad Bobur ko'plab iste'dodlarga ega bo'lган inson edi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan . Hindiston va Afg'onistonni zabt etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, lirik asarini sharq she'riyatining yorqin asarlari bilan taqqoslash mumkin bo'lган buyuk shoir, buyuk geograf va tarixchi, biolog. Uning qalbida ajdodlari va zamondoshlarining ijodi alohida o'rin egallaydi. Bobur Mirzo 4 yoshdan ta'lim olishni, 14 yoshidan boshlab esa harbiy yurishlarda qatnashishni boshlaydi, ungacha otasi Umarshayx Mirzo zamonida harbiy mashqlar, ayniqsa, kamondan o'q uzish harbiy ilmini yaxshi o'zlashtirgan. Bobur

hamisha el-yurt , xalq uchun ma'suliyatni his etib kelgan.XVI asr boshlarida Hindiston siyosiy parokandalik holatida edi. Talantli sarkarda , tajribali davlat arbobi Mirzo Bobur qulay sharoitdan ustalik bilan foydalandi. 1526-yili Mirzo Bobur ning janglarida toblangan 20ming qo'shini Afg'onistonning tog'li yo'llari orqali Hindistonga yurish qildi .G'arbdagi Boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o'zining 1986-yilda Dehlida chop etilgan "Tovus toj yoki mo'g'ullar sultanati qismati" kitobida boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning tojidir. Boburning qo'shin tarkibi. O'rta asrlar Musulmon sharqining buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Boburiylar davlatining boshqarish va saqlab turish uchun qudratli vat emir intizomga ega qo'shin lozim bo'lib , sultanat hukmdori qo'lida juda katta hajmdagi qo'shin bo'lgan. Harbiy qo'shin harbiy malakani aniqlash va takomillashtirish maqsadida har yili ko'rikdan o'tkazilgan . Shuningdek tarixchilarining ta'kidlashicha: Boburiylar davlatida qurolli kuchlar asosan 5 toifaga bo'lingan. Ular:1.Suvoriylar 2.Jangchi fillar kavaleriyasi 3.Piyoda askarlar 4.To'pchilar 5.O'qchilar. Shuningdek, ularga uncha ko'p bo'lman miqdordagi harbiy dengiz va daryo floti qo'shnlari ham mayjud bo'lgan. Asrlar osha bo'lgan an'analarga ko'ra har bir lashkarboshi, vassal davlat harbiy boshliqlariga turli unvonlar va yer mulklar berilgan. Ular o'z qo'shnlarini oziq-ovqat , quroil-yaroq bilan ta'minlangan va ularning safini to'ldirganlar ham. "Ayni Akbariy" asari muallifi Akbarshohning mohir sarkardalaridan biri Abulfazl navkarlarning sultanatga bo'y sunish darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'ladi:

"Ahadi" navkarlari. Bu guruhga mansub navkarlar eng oliv toifaga mansub hisoblanar va faqat podshohning maxsus farmoni asosidagina harakat qilar edi Ularga devonbegi va baxshi lavozimidagi harbiy mansabdor qo'mondonlik qilar va bu qo'shinga navkarlar podshoh nomidan harbiy xizmatga olinar edi. "Ahadi" navkarlari yaxshigina maosh ham olishgan. Masalan, oddiy otliq sarboz 12-15 rupiy olsa, ahadi navkarlaridagi sarbozlarga 500rupiy to'lashgan Ahadi navkarlar atrofida bo'lib, Akbarshoh davrida ularning soni 12mingga yetadi.

"Barvardi" navkarlari. Navkarlarning bu turlari ham eng mohir sarbozlardan iborat bo'lib ,ular o'z otlariga ega emas edilar . Ular asosan , ichki tartibni saqlashda hozirgi politsiya o'rnila foydalanishgan.

"Ko'maki" navkarlari. Bu toifadagi navkarlar zaxirada saqlanar va jang jarayonida zarur bo'lgan joylargagina yuborilgan.

“Dohili” navkarlari. Harakatdagi muntazam armiyaning asosiy poydevorinimana shu toifadagi qo’shinlar tashkil etgan. Bu turdag'i navkarlar o’z qo’shiniga ega bo’lmagan lashkarboshilarga biriktirilib, ularning otlariga maxsus tamg'a bosilgan. Bu navkarlar ham podshonomi bilan xizmatga olinsada ,ammo xizmati davomida sarkardalar ixtiyorida turar edi. Bu navkarlarning soni Akbar davrida 25ming , Jahongir va Shoh Jahon davrida 300 minggacha yetgan. Umuman ,sultanatning umumiyligi qo’shlari soni 400 mingga yetar edi. Dohili askarlarining eng yaxshisini otliq qismlar tashkil etib, ular ham 2ga bo’lingan: 1) Burong’ir toifasi –ot, kiyim-kechak, quroq-yaroqni hukumatdan olar edi. 2) Silador toifasi-o’zlarining ot, kiyim-kechak, quroq-yaroqlari bilan kelishgan.

“Kavaleriya”. Boburiylar qo’shining eng yaxshi qismini kavaleriya tashkil qilgan. Ular ham “Dohililar” kabi Burong’ir va Silador toifalariga bo’linar edi. Suvoriylar otlarning sifatiga ko’ra toifalarga ajratilgan. Boburiylar qo’shinida ko’proq turkey va chopqir tozi otlari ardoqlangan. Shu bilan bir qatorda arabiyy, forsiy, muzanna, Yabu va Jangla deb toifalanadigan otlardan ham foyudalanishgan. Suvoriylar otlari miqdoriga ko’ra ham toifalangan. A) 2 otli navkar-Duasapa B) 1 ta otli -Yakaspa Ayrim hollarda 2 navkar bitta otdan foydalangan holatlar ham bo’lib ular ular nimaspa (yarim otliq) deb atalgan.

“Piyoda askarlar”. Piyoda askarlar 2 qismga bo’lingan: 1.Miltiqchilar(Bandoqchilar) 2.Qilichbozlar ( shamshirbozlar) bo’linar edi. Ular kamon , o’q-yoy va nayzalardan mohirlik bilan foydalana ham olishgan. Piyodalalrdan ayniqsa Akbar davrida yaxshi foydanilgan.

“Jangchi fillar”. Boburiylar qo’shinida alohida o’rin tutar edi. Fillar sifati va egasining jang mahoratiga ko’ra , 7 xil toifaga bo’lingan. Akbarshoh davrida jangchi fillar soni 50 mingtagacha yetgan va Bengal viloyatida maxsus jangchi fillar guruhi saqlanar edi. Fillar faqat janglarda emas, yuk tashishda ham foydanilgan.

“Artilleriya ”. Bobur Mirzo Hindistonga juda kuchli artilleriyasi bilan kirib kelgan. Akbarshoh davrida yanada takomillashtirilgan. Uning davrida ulkan zambaraklar tayyorlanadi va ishga solinadi. Shu bilan bir qatorda fil yoki tuya o’rkachiga o’rnatila oladigan kichik to’plar ham ixtiro qilingan. doktorr. P .Tripatning yozishicha , Akbarshoh artelleriyasidan Osiyoda turklar artelleriyasidan keyin turar edi. To’plar turli hajmda bo’lib , og’ir zambaraklarni fillar sudrab yurar edi. Zambaraklar asosan podshohning qo’mondonligida , ba’zan esa sarkardalar boshliqligida jangga kirgan . Harbiy dengiz va daryo floti rivojlanmay , harbiy dengiz va daryo flotidan iborat bo’lib, asosan Bengal viloyatida foydanilgan. Shaharning

maydoni 5milyadan 20 milyagacha bo'lgan keng hududlarga yoyilar edi . Bu shaharda 100-200 ming kishilik qo'shin istiqomat qilar edi. Eng diqqatga sazovor joyi shundaki bu ulkan chodir va o'tovlardan iborat shaharni barpo etish bor yog'i 4soat vaqtini talab etar edi.

Shuningdek, Bobur qo'shini doimiy qurollangan yoki qurollanishga tayyor holatda yurgan. Afg'on zaminiga yurishlar qilinganda aksar qo'shin tarkibini piyodalar tashkil qilgan bo'lsa, Hindistonga yurishda otliqlar ko'p sonli bo'lganini jang lavhalari berilgan ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin. Lashkarning ta'minoti avval egallangan hududlar hisobidan bo'lgan. Shuningdek, harbiy yurish paytida lashkar ortidan yuradigan "uruq" nomli ko'ch, yuk bo'lib, u qo'shin chodirlari, qurol-aslahalar, hukmdorga tegishli anjomlardan iborat bo'lgan. Panipat jangi oldidan qo'shinni tayyorlash, urush taktikasini tuzish ishlarini reja asosida olib borishadi. Bobur jangda dushman uchun yangilik bo'lgan to'fang (miltiq)dan foydalangan va qozonilgan g'alabada buning xizmati katta edi. "Shu qo'nimjoyda (Panipatda – D.O.) butunlashkar xalqi holiga yarasha arava keltirishlarini buyurdim. Yetti yuzta arava olib keldilar. Ustod Aliquliga Rum usuli bilan aravalor orasida zanjir o'rniha ho'kizning xom terisidan arqon eshib tasma qilib bir biri bilan bog'lashga buyurdim. Har ikkita arava o'rtasiga olti-yetti to'ra qo'yiladi. To'fanglardan shu arava va to'ra ortida turib, to'fang otadilar" Rum (Turkiya) harbiy usulidan xabardorligi Boburning harbiy o'rganuvchi ekaniga yana bir dalil hisoblanadi. Panipat jangida g'alaba qozongan Bobur qo'shining yutuqlari va raqib Sulton Ibrohim qo'shini mag'lubiyatiga izoh berib "Hindistonda shunday odat bor: agar shunday urushlar ro'y bergudek bo'lsa, belgilangan muddat uchun pulga navkar yollanadi. Yollangan kishilarni "badhandiy" deb ataydilar" deydi. Ya'ni hindlar tarkibidagi yollangan askarlar tartibsiz jang qilishi va jonini fido qila olmaydigan jangchilar Bobur qo'shining g'alabasiga sabab bo'lganini yozadi "Boburnoma"da.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni qo'lga kiritishi tufayli buyuk o'zgarishlar bo'ldi. Boburshohning yuragi ba'zan Vatanni-Andijonni qumsab tursa ham , vaqt soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik , davlat va ma'muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o'tkazdi . Boburiylar butun dunyoga mashhur bo'lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilarki , ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Bobur va boburiylar xalqimizning buyuk farzandlaridir. Ular o'zlarining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar. Shuningdek "Boburnoma"da harbiy tarixning elshunoslik jihatlarini o'rganish muallif davri jamiyatining

madaniy xususiyatlarini ochib beradi. Bobur qo'shinining tuzilmasi, qurol-yarog'lari va harbiy odatlari uning nafaqat harbiy iste'dodini, balki madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan yondashuvini ham ko'rsatadi. Uning harbiy usullarini zamonasining eng yaxshi va sinovdan o'tgan tajriba namunasi, deyish mumkin bemalol.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G'ofurjon Satimov :Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri
- 2.Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Toshkent : sharq , 2014. 3.Qayumov P. Qo'qon tarixi va adabiyoti . Toshkent . Tamaddun , 2011
- 4.Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma "Toshkent : sharq ,1997
5. N. G'. Nizomiddinov. (XVI-XIX asr) Buyuk Boburiylar tarixi. 68-70 bet.
6. Uilyam Erksin. Bobur Hindistonda. Toshkent. 71-72 bet.
7. Boburnoma. Toshkent-1960 46-47 bet.
8. G'ofurjon Satimov, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri Toshkent-2008 48-51 betlar.
9. S.Hasanov. Boburning «Risolayi aruz» asari. -T.:1986;
10. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
11. G'aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.:1996;
12. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.). — T.: 1997: 13.
- R.Sharma. Boburiylar sultanati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.).. -T.: 1999.
14. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008y.
15. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.-T.: O'zbekiston,